

XALQARO TIJORAT ARBITRAJIDA ARBITRAJ BITIMLARNING HAQIQIYLIGIGA OID HUQUQIY TAHLIL

Matnazarov Xursand Sanjar og'li
Toshkent davlat yuridik universitet talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xalqaro tijorat arbitrajida bitimlarning haqiqiyligiga doir ma'lumotlar, tarixiy rivojlanish tendentsiyalari. Shu jumladan yozma talabining rasmiy haqiqiyligiga oid masalalar va online bitimlarning haqiqiyligi muhokama qilingan. Ushbu ma'lumotlarning aniqligini oshirish maqsadida qonun hujjatlari va xalqaro konvensiyalardan foydalanildi. Mavzu doirasida xorijiy va milliy olimlarning ilmiy ishlari va tadqiqot natijalaridan havolalar keltrildi.*

Kalit so'zlar: arbitraj, arbitraj bitiming haqiqiyligi, yozma shakl talabi, Nyu-konvensiyasi, UNCITRAL Model qonuni

KIRISH

Xalqaro tijorat arbitrajida arbitraj bitimining haqiqiyligi arbitraj amaliyotida muhim hisoblanadi. Taraflar kelishuvga erishganli bois keyinchalik ishlarni arbitrajda ko'rib chiqishligi olib keladi. 19 - 20 asr boshlarida arbitraj kelishuvlarning haqiqiligiga doir masalalarida davlat tomonidan arbitraj yurisdiktsiyalariga nisbatan norosizlik pozitsiyalari orqali arbitraj bitimlarning haqiqiy emasligi va bajarilmasligiga olib kelgan. Bunga sabab qilib turli xil davlatlar tomonidan amalga oshirish mexanizmlari yo'qligi va nomukammalligi keltrib o'tilgan. Keyinchalik Jeneva protokollari va konvensiyalarining qabul qilinishi orqali arbitraj kelishuvlarining taxminiy haqiqiyligini tan olish va bunday kelishuvlar uchun samarali ijro mexanizmlari ishlab chiqilishi xalqaro tijorat arbitrajining samaradorligini oshirishda katta rol o'yndi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning maqsadi xalqaro arbitrajlarda arbitraj bitimlarining haqiqiyligini tan olishga doir ishlarni ko'rib chiqish. Shuning dek, bitimning yozma shaklda tuzilishi va unga qo'yilgan talablar va elektron aloqa vositalari orqali tuzilgan shartnomalarning haqiqiyligiga doir nazariy va amaliy ma'lumotlarni tadqiq qilishdir.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Yuqorida muhokama qilinganidek, 20-asr davomida Qo'shma Shtatlar, Frantsiya, Angliya va boshqa rivojlangan yurisdiktsiyalarda arbitraj jarayoniga tarixiy ishonchsizlik asta-sekin yo'qoldi. [1] Bunga sabab, 1920-yilda Jeneva protokoli va Jeneva konvensiyalarining imzolanishi arbitrajga bo'lgan o'zgarishlarni aks ettirdi. Keyinchalik Nyu-York konvensiyalarining qabul qilinish orqali arbitraj bitimlarining tan olish va bunday kelishuvlar uchun samarali ijro mexanizmlarini taqdim etish edi. Shuning dek, ushbu konvensiya asosida arbitraj kelishuvini yozma ravishda tuzilishini talab qiladi. Nyu-York

konventsiyasi Jeneva protokolining arbitraj kelishuvlarining taxminiy haqiqiyligi va bajarilishiga oid asosiy qoidalarini takrorladi va kuchaytirdi. Haqiqatan ham, Konventsianing asosiy maqsadlaridan biri, nihoyat, ishlab chiqilganidek, 19-asrda arbitraj kelishuvlarini kamsitish uchun ajratib ko'rsatuvchi qonunchilik va sud qoidalarini rad etishni ta'minlash va buning o'rniga xalqaro arbitraj bitimlari haqiqiyligi va ijo etilishini kafolatlash edi.[2] Konvensianing 2-moddasiga binoan arbitraj kelishuvlarini tartibga soladi. "Har bir Ahdlashuvchi Davlat yozma kelishuvni tan oladi, unga ko'ra tomonlar arbitrajning predmeti bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday muayyan shartnomaviy yoki boshqa huquqiy munosabatlar bilan bog'liq holda ular o'tasida yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha yoki har qanday nizolarni arbitrajga topshirish majburiyatini oladilar." [3]

Xorijiy olimlarning ushbu masaladagi fikrlariga to'xtaladigan bo'lsak, L.Moses arbitraj bitimining haqiqiyligini ikki turi mavjudligini keltirib o'tgan.[4] Birinchisi rasmiy haqiqiyligi, ya'ni arbitraj kelishuvi bitimning yozma shaklda va imzolangan holda bo'lishi yoki o'zaro almashilgan xat yoki teleogrammalarni o'z ichiga olgan bo'lishi kabi rasmiy talablarga javob berishi lozim. Ikkinchisi, bu - mazmunan haqiqiyligidir.[5] Garry Born ko'pgina yurisdiktsiyalarda parallel qonunchilik qoidalari mavjud bo'lsa-da, bunday qonunchilikning eng yorqin namunasi UNCITRAL Model qonunidir[6] deb keltirib o'tgan. UNCITRAL Model qonuni bitimlar uchun taxminiy kuchga ega bo'lgan qoidani qabul qildi. Xususan, Modelning 8-moddasi 1-qismi "Hakamlik bitimining predmeti bo'lgan masala bo'yicha da'vo qo'zg'atilgan sud, agar taraf nizoning mohiyati bo'yicha birinchi bayonotini taqdim etishdan kechiktirmay talab qilsa, tomonlarni hakamlik muhokamasiga yuboradi. Agar u shartnomani haqiqiy emas, yaroqsiz yoki bajarib bo'lmaydigan deb topmasa".[7] Ushbu namunaviy qonunning ishlab chiqishdan maqsad xalqaro arbitraj bitimlarning taxminiy haqiqiyligi va ijo etilishiga urg'u beradi.

Arbitraj bo'yicha yuqorida aytib o'tilgan barcha xalqaro konventsiyalar, shuningdek, Namunaviy qonunning 7- moddasi arbitraj kelishuvi "yozma shaklda" bo'lishini talab qiladi. Arbitraj to'g'risidagi haqiqiy kelishuv milliy sudlarning yurisdiktsiyasini istisno qiladi va tomonlar o'rtasidagi har qanday nizo nizolarni hal qilishning xususiy usuli, ya'ni arbitraj orqali hal qilinishi kerakligini anglatadi.[8] Nyu-York konventsiyasining 2- moddasida "yozma" tushunchasi quyidagicha ta'riflangan: "Yozma kelishuv" atamasi shartnomadagi yoki tomonlar tomonidan imzolangan yoki xatlar yoki teleogrammalar almashinuvida mavjud bo'lgan hakamlik kelishuvidagi arbitraj bandini o'z ichiga oladi." [9] Konventsiyada yozma deb nimani talab kilayotganini tushunib olish zarur. 2- moddada yozma talabni belgilash bilan bir katorda, 2-moddaning o'zi "yozma ravishda" nimani anglatishini ham tushuntiradi. Yozma talab shartnomadagi band yoki taraflar tomonidan imzolangan arbitrajga rozilik to'g'risida alohida kelishuv yoki taraflar o'zaro almashgan telegramma, xatlar orqali ta'minlanishi mumkin. 2-bandning mazmuni bir qator talqinni o'z ichiga oladi. Birinchidan, imzo talabi ham "conteyner" shartnomasiga, ham arbitraj kelishuvi nisbatan

qo'llaniladimi yoki faqat arbitraj kelishuvidami? Ikkinchidan, imzo talabi xat yoki telegramma almashish uchun ham amal kiladimi? Turli sudlar turli yondashuvlarni ilgari suradi. "AQShning 5-tuman appelliyatsiya sudi "container" shartnomasini emas, balki faqatgina alohida arbitraj bitimini imzolash kerakligini taklif qiladi. Boshqa tomondan, AQShning ikkinchi va uchinchi instantsiyalari ushbu talqin bilan kelishmay talabining ikkalasiga ham tegishli ekanligini ta'kidlashadi". [10] UNCITRAL namunaviy qonunning 7-moddaning uzun va qisqa variantini o'z ichiga oladi. "Hakamlik kelishuvi yozma shaklda tuziladi. Ushbu qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari, ushbu qonun bilan tartibga solinadigan ishlarga sud aralashmaydi. 3- bandiga muvofiq "Hakamlik kelishuvi, agar uning mazmuni har qanday shaklda, hakamlik bitimi yoki shartnomasi og'zaki, xulq-atvor yoki boshqa vositalar bilan tuzilganmi yoki yo'qmi, yozma shaklda yoziladi. [11] Garry Born nima uchun xalqaro arbitraj bitimlari uchun yozma shakl talabi ko'rib chiqilishi kerakligi haqidagi shunday fikr keltrib o'tgan. "Agar a va b arbitr sifatida ular o'rtasidagi mavjud nizoni c oldida hakamlik qilishga og'zaki (yoki rasmiy ravishda noadekvat yozma ravishda) rozi bo'lsa, boshqa og'zaki kelishuvar ko'pincha amalga oshirilganidek, bu kelishuvni amalga oshirish uchun qonuniy sabablar mavjud. Xuddi shunday, agar og'zaki oldi-sotdi shartnomasi yoki boshqa tijorat bitimi majburiy bo'lsa, ushbu shartnoma bilan bog'liq nizolarni arbitrajda ko'rib chiqish bo'yicha yordamchi og'zaki kelishuv (yoki rasman nuqsonli yozma kelishuv) xuddi shunday tarzda bajarilishi kerakligini"[12] keltirgan.

Xalqaro arbitraj bitimlari uchun yozma shakldagi eng universal talab Nyu-York konvensiyasi tomonidan qo'yilgan. Konvensiyaning 2- moddasida yagona xalqaro shakl talabi belgilab qo'yilgan. Nyu-York konvensiyasining 2- moddasi Konvensiyani qamrab olishni, shuningdek, uning taxminiy kuchga ega bo'lish va kansitmaslik qoidalari, qonunni tanlash va boshqa qoidalari yozma shakldagi kelishuvar bilan cheklaydi. Ushbu yozma shakldagi kelishuvar 2-moddada tomonlar tomonidan imzolangan yoki xatlar yoki telegrammalar almashinuvida mavjud bo'lgan shartnoma yoki hakamlik kelishuvidagi arbitraj bandi sifatida tafsiflanadi. Konvensiyaning yozma shaklga bo'lgan talabi shaklga qo'yiladigan talablar uchun yagona xalqaro standartni ta'minlash maqsadida qabul qilingan bo'lib, bu mavzuga turli milliy yondashuvlarni hisobga olgan holda zarur deb topilgan. Ko'rinish turibdiki, 2-moddaning shakl talabi maxsus va faqat hakamlik kelishuviga taalluqlidir. Ikkinchchi moddaning matnida aniq ko'rinish turibdiki, uning shakli talabi hakamlik kelishuvi mavjud bo'lgan asosiy shartnomaga taalluqli emas, faqat hakamlik kelishuviga nisbatan qo'llaniladi.

Arbitraj kelishuvining yozma shaklda bo'lishi talabi, agar undagi ma'lumotlar keyingi ma'lumot uchun foydalanish mumkin bo'lsa, elektron xabar orqali qondiriladi; "elektron aloqa" - tomonlar ma'lumotlar xabarlari orqali amalga oshiradigan har qanday aloqa; "ma'lumotlar xabari" elektron, magnit, optik yoki shunga o'xshash vositalar yordamida yaratilgan, yuborilgan, qabul qilingan yoki saqlanadigan ma'lumotni, shu jumladan, elektron ma'lumotlar almashinuvi (EDI), elektron pochta, telegramma, teleks yoki

telekopiya bilan cheklangan.[13] Namunaviy qonunda taraflar elektron aloqani xalqaro shartnomalarda “Elektron aloqadan foydalanish to’g’risidagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Konvensiyasida belgilab qo’yilgan tarzda belgilaydi.” [14] Ma’lumotlar almashinuvi ta’rifi shuningdek, Elektron savdo to’g’risidagi YUNCITRAL namunaviy qonuni bilan bir xil Nyu-York konvensiyada yozma bitim xozirgi paytda "xatlar yoki telegrammalar" almashinuvida bolishi mumkinligi nazarda tutilgan bolsa ham, boshqa aloqa vositalari, masalan, faks va elektron pochta xabarlari ham shakllanish uchun ishlataladi. Elektron tijorat to’g’risidagi konvensiyaga va "Elektron tijorat to’g’risida"gi qonunga mos keladigan qilib 7-moddaga "yozuv" tushunchasini kiritilib, YUNCITRAL elektron tijoratni o’z ichiga olgan xalqaro miqyosida qabul qilinadigan "yozuv" tushunchasini ishlab chiqarilgan va Namunaviy qonunining yozish kontsepsiyasini eng zamonaviy xalqaro amaliyotga moslashtirishga xarakat qilinmoqda. Bundan tashqari, imzo talabini bekor qilingan, o’zgartirilgan 7- modda ba’zi sudlar arbitraj bitimlarining bajarilishini rad etishga sabab bolgan rasmiyatçilikni bekor qiladi. Arbitraj yozuvi yoki imzo chekish to’g’risidagi shartnoma mavjud bo’lgan imzolanmagan shartnoma Nyu-York konvensiyaga binoan amalga oshirilishi mumkin, agar ijro etuvchi mamlakat o’zgartirilgan namunaviy qonunining 7-moddasini va YUNSITRAL tomonidan Nyu-York konvensiyasining 7 -moddasini sharhlash tavsiya etilgan, unda arbitraj bitimlariga "yanada qulay huquq" qoidasi qo’llaniladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Elektron aloqa vositalaridan foydalanish to’g’risidagi konvensiyasi BMTning elektron aloqadan foydalanish to’g’risidagi konvensiyasi YUNSITRAL shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro shartnomalarda Elektron aloqadan foydalanish to’g’risidagi konvensiyasidan foydalanishga xarakat qilmoqda. CUECIC ning 20-moddasi, agar CUECIC uchun ahslashuvchi davlat boshqa Nyu-York konvensiyalari va xalqaro tovarlarni sotish shartnomalari to’g’risidagi konvensiya kabi boshqa konvensiyalar uchun ham ahslashuvchi davlat bolsa, CUECIC qoidalari elektron aloqlardan foydalanishda qo’llaniladi. [15]

XULOSA

Yuqoridagi holatlarni o’rganib chiqqan holda xulosa qiladigan bo’lsak, arbitraj bitimlarining taxminiy haqiqiyligi doir masalalar davlatlar tomonidan tan olinmagan. Keyinchalik Jeneva protokoli va konvensiyalari qabul qilinganidan so’ng bu muommolar bartaraf etildi. Bu xalqaro arbitraj bitimlarining taxminiy haqiqiyligini nazarda tutadi. Nyu-York konvensiyasi va UNCITRAL qonunlar ham arbitraj bitimlarning taxminiy haqiqiyligini va bunday haqiqiyligiga e’tiroz bildirish uchun belgilangan asoslar hisobga olingan holda tan olishini nazarda tutadi. Shuning dek, boshqa shartnomalar kabi xalqaro arbitraj bitimlariga ham shakliga doir talablar qo’yilgan. Ushbu yozma yozuv talabi yozma shaklda bolishini talab qiladi. Barcha xalqaro arbitraj konvensiyalari arbitraj uchun “yozma” kelishuvlar bilan cheklanib qolgan. Quyida yozma kelishuv atamasi arbitraj izohida yoki alohida shartnomada yoki telegramma,xatlar va fakslar almashinuvi ham o’z ichiga olganligi haqida kelitrib o’tdik. Ammo hozirgi rivojlangan zamon tendensiyalari bilan qaraganda

elektron aloqa vositalari rivojlanganligi ko'rishimiz mumkin. Shu sababli tomonlar elektron aloqa vositalri orqali arbitrajda ishni ko'rishga doir kelishuvlarni tuzish mumkin. Bu esa bitimga qoyilgan talabga zid hisoblanib keyinchalik arbitraj kelishuvining haqiqiy emasligiga olib kelishi mumkin. Lekin Model qonunida electron xabar orqali qoldirilgan ma'lumotlarni bitimning yozma shaklida tuzilgan deb hisoblanishi keltirib o'tgan. Bularga elektron pochta, telegramma, teleks yoki telekopiya aloqa vositalari keltrilib, o'zida ma'lumotlarni saqlab keyinchalik ulardan foydalanish mumkin bo'lsa arbitraj bitimi tuzilgan bo'lib haqiqiy hisoblanishi anglatadi. Shu sababli yuqoridagi izlanishlarni olib borgan holda Xalqaro tijorat arbitrajida arbitraj bitimlarining haqiqiyligini tan olishda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Arbitraj bitimlarning haqiqiyligi ta'minlashda bitimga qo'yilgan yozma shakl talabini inobatga olgan holda, shuning dek elektron aloqa vositalari rivojlanganligi bois hozirgi tendensiyalariga mos ravishda elektron aloqa vositalari orqali tuzilgan arbitraj bitimlarini haqiqiyligini oshirishda, tan olish va keyinchalik ishlarni arbitrajda ko'rib chiqishligni qulaylik yaratish maqsadida konvensiyalarga tegishli ravishda o'zgartirish kirish kerak. Ya'ni bunda ushbu elektron vositalari orqali tuzilganligini isbotlash mavjud bo'lgan taqdirda arbitrajda ko'rish majburiyati keltirib chiqarishi mumkin. Buning natijasida tijorat sohasidagi ishlarda nizolarni arbitraj sudlarida ko'rib chiqishda yurisdiktsiya olishda taraflarga qulaylik yaratish, bitimlarning tan olinmasligini oldini olish va oldov, firibgarlik shu kabi xatolarni oldini olish muhim omil hisoblangan bolardi.

REFERENCE:

1. Gary B. Born ,International Commercial Arbitration (Third Edition), 3rd edition (© Kluwer Law International; Kluwer Law International 2021)
2. Born, G. (2014). International commercial arbitration. Wolters Kluwer Law & Business.
3. Protocol on Arbitration Clauses Geneva, 24 September 1923; https://treaties.un.org/pages/LONViewDetails.aspx?src=LON&id=552&chapter=30&clang=_en [Accessed on: 03.05.2023]
4. Margaret L. Mozes, Xalqaro tijorat arbitraj tamoyillari va amaliyoti, – Toshkent. 2020 B. - 43
5. Margaret L. Mozes, Xalqaro tijorat arbitraj tamoyillari va amaliyoti, – Toshkent. 2020 B. – 44
6. Gary B. Born ,International Commercial Arbitration (Third Edition), 3rd edition (© Kluwer Law International; Kluwer Law International 2021)
7. UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration (1985), with amendments as adopted in 2006; https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/19-09955_e_ebook.pdf [Accessed on: 03.05.2023]

8. The official website: United Nations Commission On International Trade Law, UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration (1985), with amendments as adopted in 2006 // Available at: https://uncitral.un.org/en/texts/arbitration/modellaw/commercial_arbitration [Accessed on: 03.05.2023]

9. Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards (New York, 1958) at: <https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/new-york-convention-e.pdf> [Accessed on: 03.05.2023]

10. Margaret L. Mozes, Xalqaro tijorat arbitraj tamoyillari va amaliyoti, – Toshkent. 2020 B. – 43 at: <https://drive.google.com/file/d/1dJy7Yi5Q-5nmhE5-7tQ4YbR42A2j19AH/view> [Accessed on: 03.05.2023]

11. The official website: United Nations Commission On International Trade Law, UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration (1985), with amendments as adopted in 2006 // Available at: https://uncitral.un.org/en/texts/arbitration/modellaw/commercial_arbitration [Accessed on: 03.05.2023]

12. Gary B. Born, International Commercial Arbitration (Third Edition), 3rd edition (© Kluwer Law International; Kluwer Law International 2021)

13. The official website: United Nations Commission On International Trade Law, UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration (1985), with amendments as adopted in 2006 // Available at: https://uncitral.un.org/en/texts/arbitration/modellaw/commercial_arbitration [Accessed on: 03.05.2023]

14. The official website: United Nations Convention on the Use of Electronic Communications in International Contracts (New York, 2005) Available at: https://uncitral.un.org/en/texts/ecommerce/conventions/electronic_communications [Accessed on: 03.05.2023]

15. Margaret L. Mozes, Xalqaro tijorat arbitraj tamoyillari va amaliyoti, – Toshkent. 2020 B. - 54